

OLTIN ZANGLAMAS ASARIDAGI QAHRAMONLAR TAQDIRINING BADIY TAHLILI.

Gulmira Jasur qizi Xolboyeva

Termiz Davlat Universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi.

Hakim Yarashovich Axmedov

Ilmiy rahbar:.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat –G'ulom Aminjonovich Alimov tomonidan 1963-1967 yillar oralig'ida yozilgan 'Oltin zanglamas' romanidagi urushdan oldingi va keyingi davrda mudhish qatag'onlarga duchor etilgan halol, imon-e'tiqodli kishilarning fojiali qismati badiiy tasvirlangan.*

Kalit so'zlar: *Ona vatan, Halollik, Oltin, Mard, Sodiq, Sabr-qanoat, Mehr, Vafu, Xiyonat, Qiyinchilik.*

KIRISH

XX-asrning 60-yillarida boshlab O'zbek adabiyoti yangi davrga qadam tashladi. Ijodkorlarimiz, jumladan, Shuhrat ham badiiylikka, qahramon ruhiyati qirralarini haqqoniy tasvirlashga harakat qila boshladi. Shuhrat ko'plab tutqunlar qatori erkinlikka chiqqach, 'Oltin zanglamas' asarini yaratdi. Asarda o'sha davrdagi siyosatni o'quvchiga yetkazish va tinchlikning qadriga yetish g'oyasi ilgari suriladi. Ayrim qahramonlar orqali haqiqiy o'zbek yigit, mard, jasur hamda jamiyat uchun yashaydigan shaxslar g'aydalantiriladi. Yaxshilik bor joyda yomonlik bo'ladi deganlaridek, bu yerda ham Mirsalim ismli yomonlik bor edi.

ASOSIY QISM.

'Mehribon onam, sevikli muallimim, qadrdon do'stim, aziz farzandlarimga bag'ishlayman',- deya boshlaydi – muallif o'z asarida. Ushbu romanning bosh qahramoni, ma'rifat sohibi – Sodiq. Bu obraz orqali o'qituvchi degan sharafli kasb egalari tilga olinib, dunyoda yaxshi va yomon insonlar borligi, odamiylik, insoniy fazilatlar, insonga bo'lgan hasad, havas, sof muhabbat, mehribonlik, vijdonlilik, ona mehri hamda ona vatanga bo'lgan kuchli e'tiqod va samimiy muhabbat yoritilgan.

Adib birinchi navbatda, jamiyatda o'qituvchilarning qadri, salohiyati, mehnati hamda jamiyatda va maktabdagi o'rnini oqlaydi. Shunga qaramay, yomon insonlarga ham urg'u berib o'tadi. Adib qalamga olgan obrazlari asosida jamiyatdagi oddiy odamlarning fazilatlarini, matonati, mardligi, sabr-toqati hamda bardoshini g'aydalantiradi. Mirsalimning tuhmatlari natijasida, 'Vatan xoini' deb turib dastlab qamalib, keyin lagerga o'tkazilgan Sodiqning Sovet davlatiga nisbatan mehri ortsa ortdiki sira kamaygani yo'q.

Urush boshlangan vaqtda tasodif bilan frontga tushgan Sodiq davlatiga sadoqati hamda mehru muhabbati tufayli qahramonliklar ko'rsatadi va qahramonlarcha halok bo'ladi. Keyinchalik urush tugaganidan so'ng uning 'Vatan xoini' degan nomi oqlanadi. Sodiq 'oltin' odam edi. Oltin zanglamagani kabi Sodiq ham butun kitobxonlar qalbidan

o'chmas iz qoldirdi. 'Er yigit el uchun tug'iladi, va el uchun o'ladi'. (Romandan). Tarozining ikkinchi pallasiga ahamiyat qaratsak, hasad, hasislik, yomonlik hamda yovuzlik xislatlari bilan qoralangan Mirsalim obraziga duch kelamz. Mirsalim kasbi o'qituvchi, Azizaning otasi hisoblanadi. Bu qahramon orqali kommunistik tizimga qarshi chiqadigan, ikkiyuzlamachi, poraxo'r, tuxmatchi, hasadgo'y va fitna tarqatuvchi inson tasvirlangan. Bunga dalil qilib, romandan quyidagi parchani keltirsak bo'ladi. 'Mirsalimning ikkita tili bor edi; biri ko'chaga, biri uyiga. Xozir shu keying tili bilan gapirmoqda. Bu tilning bir tomchisi bir chelak suvni zahar qiladi'. Yana bir asosiy obrazlardan biri – Jannat (sodiqning birinchi ayoli). Jannat timsolida butun o'zbek ayollarining sadoqati, sabru bardoshi, matonati va vafodorligi aks ettiriladi. Shu bilan birgalikda, bu asarni o'qiyotgan paytimizda Adolat xola orqali mehribon ona obrazini ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalqining mashhur maqolidan biri 'Danagidan mag'zi shirin', degandek Adolat xola nevarasiga butun mehrini berib, erkalab o'tirardi, hattoki unga atab qo'shiq ham aytib berardi:

Maratjonim xon-xoni,
Ko'klamzor maydoni,
Hamma yomon ko'rsa ham,
Buviginasining joni.

Asar syujetini yanada ochib bergan, voqealar o'qi harakati uchun xizmat qiladigan xarakterlardan yana biri – Sodiqning ukasi Qodir va Mirsalimning qizi Aziza. Bu ikki yosh bir- biri uchun yaralgan vafoli juftliklardir. Adib har bir qahramonni go'zal bo'yoqlari orqali soda va ravon chizadiki, natijada, kitobxon zerikib qolmaydi. Aksincha voqealar oqimiga yanada chuqurroq kirib boradi. Butun yaxshilik bilan boyitilgan ummon ichra sho'ng'aydi. Asarga qo'shimcha voqealarni yoritish uchun boshqa obrazlar ham mavjud. Jumladan, Musharraf – sodiqning ikkinchi xotini; Marat – Sodiq va Musharrafning o'g'li, Adolat xolaning nabirasi, Musharraf vafotidan so'ng Jannat qo'lida qoladi; Dilovarxo'ja – sotqin, sobiq bosmachi, Bog'unning qotili; Bog'un – Sodiqning do'sti; Pushkaryov – Sodiqni tergov qilgan NKVD xodimi. Bu kabi obrazlar voqeani yanada chuqurroq o'ylashga va uni osonroq tushunishga yordam beradi.

Haqiqiy qahramon, haqiqiy baxt egasi Sodiqdir. Chunki hayot qozonida anchagina qaynadi, kuydi, yondi biroq yengilmadi. So'nggi nafasigacha ona tuproqiga fashistlar qadamini yetkazmasligi uchun mardona jang qiladi (yralanib qolgan payti). Haqiqiy mard o'g'lon olovlarda toblangan bizning qahramonimiz Sodiq oltindek zanglamas edi.

XULOSA.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilib ayta olamanki, avvalo, asarda o'qituvchi degan mashaqatli kasb egalarining o'z kasblariga bo'lgan sadoqatlarini ko'rish mumkin. ikkinchidan, Sodiqning ona yurti oldidagi qilgan mehnati, so'nggi nafasi qolguncha o'z burchini sidqidildan ado etdi. Uchinchidan esa barchamiz uchun mo'tabar bo'lgan ona obraziga alohida to'xtalgan. Ona farzandini kutadi, biroq u kelmadi... Shu kabi holatlar bilan birgalikda, usha davr ijtimoiy holatini, tuzumini, yashash darajasini voqealar ketma - ketligi orqali yozuvchi bayon qiladi va shunday deb yozadi, -'Men bu

hayotning atrofidamas, naq ichida bo'lganman. Bu mavzuda biron nima yaratmasam, ko'nglim joyiga tushmas edi'.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Q. Yo'ldosh. 'Yoniq so'z'. Toshkent, 'Yangi asr avlodi', 2006.
- 2.Shuhrat. 'Oltin Zanglamas'. Toshkent, 'Adabiyot uchqunlari', 2018.
- 3.Sarimsoqov.B 'Badiiylik asoslari va mezonlari'. Toshkent, Ma'naviyat 1994.
- 4.Shuhrat. Roman va Qissalar. Toshkent, 'Sharq' nashriyoti, 2019.
- 5.Qo'shjonov.M . O'zbekning o'zligi. Toshkent, 'Ma'naviyat' 1994.
- 6.<https://uz.wikipedia.org>.
- 7.<https://mykitob.uz>.
- 8.<https://n.ziyouz.com>.
- 9.<https://arm.tersu.uz>.
- 10.<https://www.scribd.com>.